

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI  
SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARINI**

**Abdujalilova Ruxsora Nodirbek qizi**

*Osiyo Xalqaro universiteti “ Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi”*

*( boshlang’ich ta’lim) mutaxassisligi 1- bosqich magistranti*

*sardorbekrasulov874@gmail.com ( +998 99 097- 43- 28)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishning zamonaviy tendensiylarining metodologik tamoyillari, pedagogiko-psixologik xususiyatlarini ilmiy tavsiflash, nutq madaniyatini shakllantirish jarayoni amalga oshirishda o‘zining amaliy ifodasiga oid fikr- mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** nutq madaniyati, zamonaviy tendensiylar, nutq texnikasi, og’zaki nutq, yozma nutq, ta’lim, lug’at, hamkorlik, kommunikativ munosabat.

**СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛНЫХ КЛАССОВ.**

**Абдужалилова Рухсора Нодирбек кизи**

*Магистр 1-курса по специальности «Теория и методика обучения и воспитания*

*(начальное образование)» Асия международный университет*

*sardorbekrasulov874@gmail.com ( +998 99 097- 43- 28)*

**Аннотация:** В данной статье излагаются методические основы современных тенденций формирования культуры речи у учащихся младших классов, научная характеристика педагогико-психологических особенностей, комментируются ее практические проявления в процессе формирования культуры речи

**Ключевые слова:** культура речи, современные тенденции, техника речи, устная речь, письменная речь, воспитание, словарный запас, сотрудничество, коммуникативная установка.

**MODERN TENDENCIES OF SPEECH CULTURE FORMATION IN PRIMARY CLASS STUDENTS**

**Abdujalilova Rukhsora Nodirbek kizi**

*International University of Asia "Theory and Methodology of Education and*

*Training"(primary education) 1st stage master's student*

*sardorbekrasulov874@gmail.com ( +998 99 097- 43- 28)*

**Abstract:** This article describes the methodological principles of modern trends in the formation of speech culture among elementary school students, scientific description of pedagogical-psychological features, comments on its practical expression in the process of formation of speech culture.

**Key words:** speech culture, modern trends, speech technique, oral speech, written speech, education, vocabulary, cooperation, communicative attitude.

## KIRISH

topishiga, chuqur bilimli, ma’naviyati yuksak, vatan ravnaqiga hissa qo’sha oladigan shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgandir. Rivojlangan davlatlarning yetakchi ta’lim muassasalarida mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasbhunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo’lgan yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha keng ko’lamdagи ishlar amalga oshirilmoqda. O’zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini jahon miqyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodning bilimdon, ma’naviy jihatdan barkamol insonlar bo‘lib yetishishiga bog’liqdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022 -yil 11 maydagi “2022-2026-yillarda “Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g’risida”gi PF-134-son[1], 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlarni to‘g’risida” PQ-4884-sonli qarori[2], O’RQ-637- son 23.09.2020. “ Ta’lim to‘g’risidagi qarori” [3]da belgilangan vazifalar yosh avlodni barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishi uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

Hozirgi zamonaviy ta’lim tizimidagi ilmiy tatqiqodlarda yangi terminlardan unumli foydalanishga kata e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, o’quvchilarning nutqini shakllantirishda zamonaviy tendensiyalarning o’rni va ahamiyati ham bugungacha olimlar tomonidan chuqur o’rganilmoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Nutq- o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishdagi muhim vosita hisoblanadi.O’quvchilarda nutqni shakllantirish tushunchasiga bir qator olimlar turlicha ta’rif beradi.Taniqli tilshunos olim A.Nurmonovning ta’kidlashicha, o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyanı shakllantirishda ikki tamoyilga asoslanib ish ko‘riladi: lingvistik tamoyil va psixologik tamoyil.[5] Ushbu tamoyillar asosida har bir o‘quvchi tilning sathlari haqidagi bilimlarni to‘la o‘zlashtiradi va o‘zining faoliyatida boshqalar bilan o‘zaro aloqa jarayonida unumli foydalana oladi.

Tatqiqodchi M.B.Zaripova o‘zining “ Boshlang’ich sinf o‘quvchilarini nutq faoliyatini rivojlantirish uslubiy ko‘rsatmalari” nomli maqolasida “ Boshlang’ich sinf ( 1-4) o‘quvchilarida nutq jarayonining shakllanishi nafaqat atrof- muhit, balki, u bilan bo’lgan munosabatlar bilan uzviy bog’langandir.Uslubiy metodikalarni rivojlantirish va ularni amaliyatga tatbiq etish dars berayotgan o‘qituvchining mahoratiga bog’liqdir”[4],- deydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarning nutqiy savodxonligi

shakllanishi va rivojlanishida pedagoglarning o‘rni kata ahamiyat kasb etadi va ularning o‘zlarida ham nutq texnikasi shakllangan bo‘lishi zarur.

Q. Abdullayeva va boshqalar muallifidagi “Savod o‘rgatish metodikasi” kitobida o‘quvchilarning nutqini shakllantirish uchun quyidagicha tavsiyalar berilgan : “Nutq fikrni bayon etish vositasi bo‘libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o‘stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallah asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o‘stirish mumkin. Shuning uchun o‘quvchilar nutqini o‘stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo‘naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi” [7].

### TATQIQOD METODOLOGIYASI

Maqolada boshlang’ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishda zamonaviy tendensiyalarning metodologik tamoyillari, pedagogik-psixologik xususiyatlarini ilmiy tavsiflash, nutq madaniyatining o‘ziga xosligi uning pedagogik faoliyatni tashkil etish uchun zamonaviy tendensiyalarni jarayonga olib kirishda o‘zining amaliy ifodasiga oid fikr - mulohazalar bayon etilgan hamda xorijiy va respublikamizdagi olim va tatqiqodchilarning ilmiy ishlari tahlil etilib, boshlang’ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishning zamonaviy tendensiyalarga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Nutq madaniyati – og’zaki va yozma adabiy til me’yorlari ( talaffuz, urg’u, so‘z qo’llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari) ni egallah, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati [8].

Nutq madaniyati haqidagi mazmunli bayonetini Brokxauz va Erfonning kichik ensiklopedik lug’atidan topishimiz mumkin : “ nutq madaniyati- bu nutqning rivojlanish darajasi, til yoki dialekt me’yorlarini bilish darajasi, bu me’yorlardan oqilona chetga chiqish qobiliyati bilan izohlanadi”[6].

Boshlang’ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish nafaqat dars jarayonida balki, sinfdan tashqari o‘qish darslarida ham olib boriladi. Boshlang’ich sinflarda sinfdan tashqari o‘qish darslarini o‘tkazish jarayonida o‘quvchilarga o‘qish saboqlarini berish, kitob bilan muola qilish, qayta hikoyalash, she’r yod olish, tasvirli ifodalash kabi ko‘nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashdan iborat. Sinfdan tashqari o‘qish jarayonida o‘quvchilarning o‘zları mustaqil ravishda turli xil ertaklar, masallar, hikoyalarni tanlab sahnalashtirishi nutqning rivojlanishiga, bolalardagi ijodkorlik va suxandonlik, notiqlik qobiliyatlарini shakllanishiga zamin yaratadi.

Boshlang’ich sinflar uchun mo’ljallangan “Ona tili va o‘qish savodxonlik” darsligining qator mavzularining topshiriqlari orqali o‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish mumkin. Masalan, “ Tovushlar va harflar” mavzusida o‘quvchilar mavzuni o‘rganish mobaynida O‘zbekiston haqida matnni ifodali o‘qishadi , berilgan

rasmli topshiriqlarni bajaradilar. Bu orqali o'quvchilarning nutqiy qobilyatlari shakllanadi. Ayniqsa, zamonaviy yondashilgan rasmli topshiriqlar o'quvchilarning topshiriqqa bo'lgan qiziqishini orttiradi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim- tarbiya jarayonida zamonaviy tendensiyalar asosida 2- sinf “Ona tili va o'qish savodxonligi” darsligida berilgan topshiriqlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish ta'limning samaradorligini yangi bosqichga ko'tarilishiga hamda nutq madaniyatini paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 -yil 11 maydagi “2022-2026-yillarda “Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi PF-134-son .
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlarni to'g'risida” PQ-4884-sonli qarori 6.11.2020y.
3. O'RQ-637- son 23.09.2020. “ Ta'lim to'g'risidagi qarori”
4. M.B.Zaripova " Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq faoliyatini rivojlantirish uslubiy ko'rsatmalari" "Science and education journal".Impact Factor.March 2023.VOLUME 4 .Issue 3
5. M.G'ofurova.M.Usmanova."Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish usullari (Savodxonlik davrida).Moskva- 2024.
6. N.Y.Ahmadjonova." Nutq madaniyatini va uni shakllantiruvchi omillar" Oriental Reannessance: Innovative, education, natural and social sciences.SJIF= 6.131
7. Q.Abdullaeva va boshqalar. Savod o'rgatish metodikasi. Toshkent. “O'qituvchi”. 1996, 4, 27- sahifalar.